

## TIFLOPEDAGOGIKA VOSITASIDA KO'ZI OJIZ VA ZAIF KO'RUVCHI BOLALARNI O'QITISHNING MAZMUN MOHIYATI

Zumradxon Astanova Toxirovna

ADPI doktoranti

zumradastanova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18831890>

**Annotatsiya:** Yosh avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda mas'uliyatli vazifadir. Insonparvar davlatimiz har bir bolaning o'sib ulg'ayishi, ta'lim-tarbiya olishi to'g'risida qayg'uradi. nogironligi bo'lgan bolalarni esa ijtimoiy himoyasiga oladi. Ularning hayotda o'z o'rinlarini topishlariga ko'maklashadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasiga zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. Jumladan, ko'rish bo'yicha nuqsoni bo'lgan bolalarga berilayotgan e'tibor va imkoniyatlar tahsinga sazovordir.

Ushbu maqolada ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi pedagoglar ularning ko'rish darajalari va kasalliklari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishlari hamda dars jarayonlarida tiflopedagogik vositalardan foydalanishlari zarurligi haqida fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tiflopedagogika, ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi, ta'lim-tarbiya, rehabilitatsiya.

**Аннотация:** Формирование молодого поколения всесторонне развитой личности – очень ответственная задача. Наша гуманитарная страна заботится о росте и образовании каждого ребенка. и берет детей с ограниченными возможностями под социальную защиту. Они помогают им найти свое место в жизни. Здесь создаются необходимые условия для обучения детей с особыми образовательными потребностями. В частности, заслуживают похвалы внимание и возможности, предоставляемые детям с нарушениями зрения.

**Ключевые слова:** Педагогика, слепые, слабовидящие, образование, реабилитация.

**Abstract:** Forming the young generation into a well-rounded person is a very responsible task. Our humanitarian country cares about the growth and education of every child. and takes children with disabilities under social protection. They help them find their place in life. It creates the necessary conditions for the education of children with special educational needs. In particular, the attention and opportunities given to visually impaired children are commendable.

**Keywords:** Pedagogy, blind, visually impaired, education, rehabilitation.

**Kirish:** Ko'z insonning hayot faoliyatida analizatorli muhim a'zolaridan biridir. Bola dunyoga kelgan kunidananoq ko'radi, eshitadi, hid va ta'mni xis etadi.

U asta-sekin Tevarak atrofdagi borliqni bilishga, sezishga va idrok qilishga urinadi. Bolaning tasavvur olami hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi. ikki yoshiga to'lganda esa u buyumlarning rangi, shakli, hajmiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi, Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar rivojlanib boradi:

ko'rish va ko'zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga

qarab ajratish, ko'zi ko'rayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish kabi. Bu esa bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga egadir.

Ko'rish imkoniyati cheklangan bolalar esa ko'z orqali oladigan barcha ma'lumotlarni eshitish va sezgi qobiliyatlariga tayanish orqali anglay boshlaydilar. Narsa-buyumlarning rangi,

shakli, harakati, uzoq-yaqinligi, fazodagi o'рни haqida tasavvurga ega bo'lishni va ulardan foydalana olish ko'nikmalarini qo'llari bilan paypaslagan holda o'rganadilar. Bu toifa bolalar bilan oilada ota-onalari. maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarbiyachi hamda o'qituvchilar shug'ullanar ekan, ular tiflopedagogik bilim va malakalardan xabardor bo'lishlari juda muhim hisoblanadi.

**Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.10.2020 yildagi O'RQ-641-son** “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi” [1.] qonunining tegishli moddalari asosida nogironligi bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlanishiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu qonunning 8-moddasida: Nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipidan kelib chiqib,

Nogironligi bo'lgan bolalar boshqa bolalar bilan teng ravishda insonning barcha huquq va erkinliklaridan to'liq hajmda foydalanishi, ularni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, ijtimoiy faolligiga va mehnatga bo'lgan qiziqishiga ko'maklashish, ta'limga, ilm-fanga, texnikaga, san'at va sportga jalb etish maqsadida nogironligi bo'lgan bolalar manfaatlarining ustunligi ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvor hisoblanishi bayon etilgan. Shuningdek ko'rishda nuqsonli bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi Tiflopedagogika sohasining rivojlanishi va amaliyotda keng qo'llanishiga bog'liqdir.

“Tiflopedagogika (yunoncha tiflos – ko'r, so'qir so'zidan olingan) – ko'zi ojiz bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shuqullanadigan fan” [5. 6.] Hisoblanadi. Ushbu fan Oftalmologiya, Pedyatriya, Psixologiya bilan o'zaro aloqadorligi ahamiyatlidir.

Ko'rish imkoniyati cheklanganlik darajasining kelib chiqishi ikki xil ya'ni Tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Ko'rish nuqsonining tug'ma bo'lishi irsiy yoki embriyoning rivojlanish davridagi zararlanishi oqibatida yuzaga keladi. Orttirilgan ko'rish nuqsoni esa biron-bir baxtsiz hodisa yoki boshqa bir kasallikning asorat qoldirishi tufayli sodir boladi.

“Ko'rishda muammosi bo'lgan bolalar ko'ruv o'tkirligiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Total ko'rlar- ko'rish o'tkirligi 0 foiz bo'lgan bolalar Brayl tizimidagi yozuv asosida o'qiydi va yozadilar.

2. Qisman ko'rlar, ko'rish o'tkirligi 0,05 gacha bo'lgan bolalar saqlangan ko'rish imkoniyatidan foydalanib oddiy yozuvda o'qish va yozishi mumkin.

Zaif ko'ruvchilar ko'rish o'tkirligiga ko'ra quyidagicha turga bo'linadi:

1.Ko'ruv o'tkirligi 0, 05 dan 0, 1 gacha;

2.Ko'ruv o'tkirligi 0, 1 dan 0, 2 gacha;

3.Ko'ruv o'tkirligi 0, 2 dan yuqori 0, 4 gacha. Ko'zi ojiz bolalar darsda o'quv materialni asosan taktil sezish va eshitish idroki asosida o'zlashtiradilar. Ko'zoynak taqib yurishi kerak bo'lgan bolalarga tegishli sanitariya-gigiena sharoitlari yaratilishi zarur. Bolaning ish o'рни to'g'ri va yetarli darajada yoritilgan bo'lishi lozim. Bola doska, jadval, kartada chizilgan tasvirlar va boshqa o'quv materiallarini qanchalik aniq ko'rayotganiga e'tibor beriladi. Alohida yordamga muhtoj refraksiyali bolalarning ko'zi tez charchab qolishini hisobga olib, dars vaqtida ularga ish turlarini mumkin qadar o'zgartirib turish, ko'z qadash bilan bog'liq bo'lgan ishlar, topshiriqlar hajmini g'oyat jiddiy nazorat qilib borish talab qilinadi” [3. 5.].

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus Ta'lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan “Maxsus pedagogika” [6. 295.] darsligida ko'z kasalliklari va ko'rish darajasiga oid ma'lumotlar berilgan. Unga ko'ra Zaif ko'ruvchi bolalarning ham ko'rish darajasi turlicha bo'ladi. Uzoq

masofani ko'ra olmaydigan yoki yaqinni ko'rmay, uzoqni ko'radigan, ranglarni ajrata olmaydigan (rangsiz ko'radigan). Zaif ko'ruvchi bolalar uchun moslashtirilgan metodlardan foydalanish zarur.

Refraksiya – bu kasallik bilan og'rig'an bolalar alohida yordamga muhtoj hisoblanadi. Yaqin ko'rishda uzoqdagi buyumlarni noaniq ko'rish, yanada aniq tushintirilganda, xarita, jadval, chiziqlarini sayr vaqtida uzoqdagi ob'yektni kuzatish, o'qish, yozish, rasmlarni o'zlashtirishda, qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu kasallik turiga mansub bolalarga boshni uzoq egib turish, tez engashish, og'ir ko'tarish, tana silkinishlari, mayda ob'yektlar bilan uzoq ishlash taqiqlanadi. Xira yorug'lik man etiladi.

Uzoqni ko'rish – bu holatda narsa- buyumlar ko'zdan yiroqda ko'rinadi. Ko'zga yaqin buyumlarni esa anglashda qiyinchilik tug'iladi. Bunday kasallikka mansub bolalar mayda ob'yektlarni ko'rishda juda qiynaladilar va o'qish, yozish, tarqatma manbalarni o'zlashtirishda noqulaylikka duch keladilar. Ularga jismoniy vazifalarni bajarish man etilmaydi, biroq, yaqin ob'yektlar bilan uzoq vaqt ishlash ta'qiqlanadi.

Ayrim bolalarda Ambliopiya kasalligi kuzatiladi. Bu kasallik ko'rishdan kam foydalanish natijasida yuzaga keladi. Bunda ikki tomonlama g'ilyalik shakllanadi. Bu kasallikda o'qish va yozish, rasm chizish, xarita va jadvallarni o'rganish juda qiyin kechadi.

Nistagm – ko'zning beixtiyor ritmik takrorlanuvchi harakati. Bunda ko'rilayotgan atrof-muhitdagi tasvirlar yoyilib ko'rinadi. Bunda bola ko'rish diqqatini jamlay olmaydi. Ayniqsa, harakatdagi jismlarni idrok etish juda mushkul bo'ladi.

Astigmatizm – uzoq va yaqindan ko'rishning buzilishi qo'shib ketadi. Shoh pardaning shakli buzilishi natijasida nurlar noto'g'ri sindiriladi. Bunday kasalligi bor bolalar to'r pardasida vertikal, gorizantal va boshqa yo'nalishlardagi qiyshiq idrok etish natijasida ularning tasavvurida jism shakliga nisbatan noto'g'ri tasvir paydo bo'ladi.

Bu kabi kasalliklarga yana katarakta, ko'rish nervi atrofiyasi, albinizm, mikroftalm va boshqalar kiradi.

Katarakta – ko'z gavharining loyqalanishidit. Bu kasallikda gavhar jarrohlik yoli bilan olib tashlanib, o'rniga yangisini qo'yish orqali davolanadi.

Afaksiya – gavharning yo'qligi.

Shoh pardaning vazifasi – nurlarni sindirish. Afaksiya kasalligida va gavhar siljib ketgan bolalarda jismoniy vazifalar cheklanadi.

Ko'rish atrofiyasi – bosh miya jarohatlari, ko'zning to'r pardasi kasalliklari, miya shishishlari, ko'rish nefriti natijasida ham kuzatilishi mumkin. Bunda ko'z markaz bilan bog'liqligi uziladi. Bu kasallik davolanmaydi. Biroq, undan kelib chiqadigan ikkilamchi nuqsonlarni oldini olish zarur. Bunday kasalligi bor bolalarni ko'z bilan o'qitishda 5-10 daqiqadan oshmasligi kerak.

Pgmentli retinent – to'r pardadagi tayoqchalar faoliyatining buzilishi. Bunda ko'rish maydonining torayishi yoki butunlay yo'qotilishi kuzatiladi, kasallikning davosi yo'q.

Albinizm – to'r pardada pigment yetishmasligi. Bunda bolaning ko'zi qizil, sochi va tanasi oq bo'ladi. Ularni quyosh nurlaridan saqlanishi tavsiya etiladi.

To'r pardaning tashqi qobig'i oqib tushadi. Ko'pincha miopiyasi bor bolalarda bu holatga moyillik bo'ladi. Ularga og'ir ko'tarish, jismoniy mashqlar mumkin emas. Ular bilan uzluksiz ishlash 5 daqiqadan oshmasligi kerak.

**Adabiyotlar tahlili:** Tiflopedagogika fanining rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan tadqiqotchi S. Dangalovning “Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati” [4. 15.] nomli metodik tavsiyanomasida ushbu sohada faoliyat olib borgan, buyuk metodik kashfiyotlar qoldirgan quyidagi olimlarning nomlari keltirilgan: Tiflopedagogika fanining asoschisi V. Gayui ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish bo‘yicha ilk bor tashabbus ko‘rsatib, Fransiya va Rossiyada maxsus ta‘lim muassasalarini tashkil etgan. Uning ushbu fidoiyligi bugungi kunga qadar mazkur sohani takomillashib borishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

I. Braylning olti nuqtadan iborat rel‘efli yozuvi butun dunyo ko‘zi ojizlarini zulmaddan yorug‘likka olib chiqqani barchamizga ma‘lum.

Y.B. Ryabkin ranglarni farqlash bo‘yicha tug‘ma va orttirilgan shakllarini izlab topdi.

A.I. Gersem nomidagi Lelingrad pedagogika instituti professori B.I. Kovalenko ushbu fanning rivojlanshiga va ko‘zi ojizlarni Umumta‘lim fanlariga o‘qitish usullarini ishlab chiqishga katta hissa qoshgan.

M.I. Zemsova, A.I. Litvak, V. Fromm, Y. Yasenskiy – ko‘rish nuqsonining darajasiga ko‘ra tafakkur rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan.

O‘zbek olimlaridan Sh. Xalilova 2005-yilda “Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tafakkur xususiyatlari” mavzusida, O. Rustamov “Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” mavzusida tadqiqot ishlari olib bordilar.

Yosh olimlardan: D. Sultonova, N. Obidova, Z. Djalolovalar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik-korreksion ishlarni o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish, takomillashtirish yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borib, darslik, o‘quv qo‘llanma, dastur va maqolalar nashr ettirdilardi.

**Muhokama va natijalar:** Ko‘rish qobilyatining daraajalari kattalarda yosh ulg‘aygani sayin zaiflashib borishi ko‘proq kuzatiladi, bolalarda esa, reabilitatsiya ishlari yaxshi olib borilgan hollarda ijobiy tomonga o‘zgarishi ham mumkin.

Ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarning ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanish sog‘lom bolalarnikidan ikki hissa mas‘uliyatli va mashaqqatlidir. Chunki, ko‘rishdagi nuqsonlar bolaning ruhiy, jismoniy rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatib, agar bolaning ta‘lim-tarbiyasini to‘g‘ri shakllantirmasa, boshqa bir ikkilamchi nuqsonni ham orttirib olishi mumkin.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ta‘limga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish, mustaqil bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish borasida zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishda imkoniyatlarini hisobga olish lozim. Shuningdek, ijodiy faoliyat, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ularda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish kabi masalalar tizimli ravshda amalga oshirilmog‘i zarur. Ko‘zi ojiz bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash, o‘z-o‘zini namoyish etishga bo‘lgan ishonchini shakllantirish, intilishlarini munosib baholash, individual qobilyatlarini yuzaga chiqarish kabi ta‘limiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish kerak. Ko‘zi ojiz sog‘lom insonlar bilan muloqot qilishida ijtimoiy tajribasini oshirish, madaniy hayotda faol ishtirokini ta‘minlah, milliy qadriyatlarga sodiq, vatanparvarlik, insoniylik, fidoiylilik, estetik tushunchalar va tamoyillar asosida axloqiy tarbiyasini, ma‘naviy ongini tarbiyalash, psixologik ko‘mak berish ularga mas‘ul bo‘lgan pedagog va tarbiyachilarning burchi va vazifasi sifatida sidqidildan ado etilishi joizki, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ham jamiyatning bir bo‘lagi sifatida o‘rin topmog‘i darkor. Qolaversa, ularni nafaqat aqliy, balki, jismoniy rivojlanishiga ko‘maklashish, shaxsiy gigiyenaga oid bilimlarini ham boyitish, sog‘lom turmush tarziga, mehnatsevarlikka

o'rgatish orqali mustaqil hayotga tayyorlash yo'lidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu dolzarb masalalarning yechimini, mazmun-mohiyatini faqat va faqat tiflopedagogika sohasi ochib beradi.

“Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan shug'ullanuvchi o'qituvchi va tarbiyachilar ularga nisbatan ta'lim-tarbiyaning barcha shakllarida tiflopedagogik, psixologik yondashuvning ustuvorligini namoyon etishlari lozim. Buning uchun, eng avvalo, bolalarning ko'rish darajasini aniqlab olish bu boradagi birinchi qadamdir. Ya'ni ko'rmaydigan bolalarning ko'rish qobiliyati necha yoshda yo'qolganligi, zaif ko'ruvchi bolaning ko'rish darajasi qancha masofani tashkil etishi va kasallik turini uning sog'lig'i to'g'risidagi shifokor xulosasiga ko'ra bilib olishlari kerak bo'ladi” [2. 153.].

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda ularning ko'rish darajalarini aniqlash va shunga muvofiq dars usullarini qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Jumladan:

Ko'rish darajasi 0% bo'lgan ko'zi ojiz bolalarga nisbatan ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda ularning sezish qobiliyatlarini kuchaytirishga qaratilgan metodlar qo'llaniladi. Shuningdek, bu turdagi bolalar ham ikki xil bo'lib, tug'ma va orttirilgan (necha yoshda orttirilganligiga qarab) ko'z kaslliklari sababli ko'rish qobiliyatini yo'qotganligi e'tiborga olinaKo'zi ojiz bolalar bilan ishlashda ularning kasalliklari to'grisida tegishli ma'lumitga ega bo'lish g'oyat muhimdir. Aks holda uning sog'ligiga putur yetkazish mumkin bo'ladi. Agar bolaning ko'zi ojizligi qancha kech boshlangan bo'lsa, uning borliq haqidagi tasavvurlari shuncha boy bo'ladi va uni takomillashtirish bir muncha oson kechadi.

Ko'rish qobiliyati zaiflashgan bola ota-onasining yoki unga teng shaxslarning xohishiga ko'ra “Nurli maskan” maktab-internatlarda, Umumta'lim maktablarida o'qishlari mumkin. Biroq, bolani ta'lim muassasiga berishdan avval uni Oftalmolog ko'rigidan o'tkazib, mutaxassis tavsiyasiga ko'ra o'qish joyini tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zaif ko'ruvchi bolalarning maxsus bog'cha va maktablarda ta'lim-tarbiya olishi ularning ko'rish qobiliyatlarini saqlab qolish, korreksiya qilsih va kelgusidagi ikkilamchi ruhiy asoratlarini oldini olish kabi omillardan iborat.

**Xulosa** qilish mumkinki, ko'zi ojiz bolalarni o'zlariga munosib joyda ta'lim-tarbiya olishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilsa, zarur tiflopedagogik metodlar va korreksiya ishlari to'g'ri tashkil etilsa, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlansa, bunday bolalardan kelajakda jamiyatga o'z hissasini qo'shuvchi, o'z kasbiga ega bo'lgan, yuksak ma'naviyatli insonlar yetishib chiqishi shubhasizdir.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.10.2020 yildagi O'RQ-641-son “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida” <https://lex.uz/>
2. Kadirov V.A. Astanova Z.T. CONSIDERATIONS REGARDING MUSIC EDUCATION AT
3. THE SPECIALIZED BOARDING SCHOOL “NURLI MASKAN”
4. “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali. 2024-yil 31-mart. [scientists.uz. https://t.me/](https://t.me/scientists.uz)
5. RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI.
6. Ko'rishda muammosi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga
7. moslashishida oilaning roli. Metodik qo'llanma. T.: 2022.
8. Dangalov S. Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati. Metodik tavsiyanoma. T.: 2010.

9. Hamidova M.U. Maxsus pedagogika. T.: 2018.
10. Oliy va O'rta maxsus Ta'lim vazirligi. Maxsus pedagogika. Darslik. T.: 2014.